



DIZAYNDA KOMPOZITSIYA HUSUSIYATLARINI TAXLILI

Xoshimova Zulfiya Komilovna

*Toshloq tumani 2-son kasb hunar maktabi
“Maxsus fanlar” kafedrası o’qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda turli xil kiyimlarga qo’yiladigan dizaynda kompozitsiya hususiyatlarini talablari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Simmetriya – kompozitsiyaning yorqin namoyon bo‘luvchi hususiyatlaridan biri hisoblanib, shakl (*forma*) holatini aniqlab beradi, binobarin, uni tashkil etuvchi vosita sifatida Modelni bir xil o‘xshashlik qiymati

Inson tanasi tuzilishi bilan bog‘liq buyumlar haqida gap ketarkan, ushbu buyum shaklining inson bichimi hamda fazo (*kenglik*) bilan o‘zaro munosabati muhim shart deb sanaladi. Bu kabi munosabatning xarakteri, dastavval, simmetriya yoki asimmetriya orqali shakllanadi. Shaklning ayrim bir nuqta, o‘q yoki tekislikka (mos ravishda simmetriya markazi, o‘qi yoki tekisligiga) nisbatan o‘zaro bir hil joylashgan elementlar simmetrik bo‘ladi. shakl ana shu markaz, o‘q yoki tekislik atrofida aylantirilsa, simmetrik elementlar to‘liq mujassamlashadi. Simmetriya, inson tanasining simmetrik shakl qobig‘i deb sanalgan kostyumda, kompozitsiya uyg‘unligi va badiiy ma’nodorligiga erishish vositalaridan biridir.

Simmetriyaning turli hil ko‘rinishlari mavjud – shaffof (*tiniq*), markaz, o‘q, tekislik simmetriyasi va hakoza. Amalda loyihalovchi duch kelishi mumkin bo‘lgan simmetriyaning o‘ziga yarasha hususiyatlaridan biri shuki, simmetrik shaklda asimmetriya ham kuzatiladi. Simmetriyadan voz kechish (*chekinish*) har doim ham shaklni buzmaydi. Ma’qul tarzda joylashtirilsa, asimmetrik element uyg‘unlikda qolgan hajm bilan bog‘lanib, kompozitsion muvozanatga erishiladi. Umuman simmetrik kompozitsiya esa nozik did va o‘ziga hoslikka ega bo‘ladi.



1-rasm Kiyimlarda simmetriyani qo'llanilishi.

Asimmetrik shakl ham yuksak maromda tashkillangan bo'lishi mumkin, agarki uning negizida ushbu shakldagi kompozitsion muvozanatni belgilab turuvchi ayrim qonuniyatlar yotsa. Asimmetriya damba-dam kompozitsiyaning o'zgacha tamoyili (*prinsipi*) sifatida yaqqol ko'rinadi ham.



2-rasm. Asimmetrik ko'rinishdagi modellar.



Асимметричная композиция, обычно, танlangan echim naqadar jo'shqinligini ta'kidlashda qo'llaniladi. Асимметричный shape yaxlitligining bosh mezonі – kompozitsion vazminlik hisoblanadi. Simmetriya va asimetriyani mohirona qo'llay bilish libos hamda poyabzalning turlicha modellarini yaratish imkonini beradi.



3-rasm. Asimetriya va simmetriya qo'llangan modellar.

Buyum shaklining barcha elementlari birligi (ya'ni, ularning to'g'riligi va mutanosibligi, teng qaramligi) kompozitsiyaning muhim hususiyati vositasi sanaladi. Birlik, shuningdek, kompozitsiya hususiyati sifatida san'atning barcha janr va turlarida ham namoyon bo'ladi.

Badiiy loyihalashda sanoat mahsuloti shaklining yaxlitligi, konstruktiv echimning o'z kompozitsion timsoli bilan bog'liqligi, uning qanchalik mantiqqa to'g'ri kelishi hamda yaqinligini aks ettiradi. Yaxlitlik kompozitsiyaning boshqa bir asosiy hususiyati – teng qaramlik bilan uzviy bog'liq. Poyabzal, libos va shokazolar.ning istalgan kompozitsiyasiga asosiy, unchalik muhim bo'lmagan, hamda ikkilamchi elementlarning bir-biriga bo'ysunishiga asoslangan ma'lum bir tizim sifatida qaraladi. Shape (*forma*) elementlari bir-biri bilan o'zaro kontrast, nyuans va o'xshashlik tamoyillari bo'yicha muvofiqlashishi mumkin. Kontrast (*keskinlik*) – shakldagi turli ibtidolarning kurashidir. Ushbu taqqoslov shape, rang,



qizg'inlik darajasiga qarab amalga oshiriladi. Keskinlikni ko'rkam, bejirim va sport modellari echimlarida qo'llagan ma'quldir. O'xshashlik (*ayniyat*) – poyabzal, libos kompozitsiyasida turli hil variantlarda qaytalangan va rivojlangan biror-bir elementning takrorlanishi. Nyuans esa kontrastdan (*keskinlikdan*) o'xshashlikka o'tish holati sanaladi, u elementlar o'rtasida qo'shimcha manzarali bog'liqliklarni yaratadi, shu bilan echim hamohangligiga erishiladi. Shaklning aniq va ravshan bo'lgan kontrastli echimida elementlarni nozik ravishda ishlab chiqish hamda yengilgina dekor (*bezak berish*) faqat kompozitsiya g'oyasini ajratib turadi va uni yanada ta'sirli, jonli chiqishiga majburlaydi.

Libos, poyabzal, sumkaning kompozitsion jihatdan tashkillangan hajmdor shakli bir-biriga bo'ysunuvchi qismlar (*bo'laklar*) tizimi deb tushuniladi, undagi asosiy va ikkilamchi qismlar bir-birlarini to'ldirgan holda, butunlikni paydo qiladi. Teng qaramlik ikkita teng bo'lmagan elementni taqqoslaganda yoki shaklni teng bo'lmagan qismlarga bo'laklaganda yuzaga keladi.



4-rasm. Modellarda sumka va tuflilarni umumlashgan silueti.

Misol, agar to'rtburchak (ko'ylak, sumka yoki tuflilarni siluetining shartli ravishda umumlashgan shakli) ikkita teng bo'lmagan qismga bo'laklansa, u holda to'rtburchak shaklning kattaroq bo'lgan qismi o'lchami bilan ajralib turadi va shaklning kichikroq qismini o'ziga bo'ysundiradi. Aynan shunday to'rtburchak shakli uchta qismga bo'laklansa ham, o'zaro bir hil sharoitda asosiy qismni ajralib turishiga imkon yaratadi. Shakl uchta teng qismga bo'laklansa, o'rtada joylashgani (markazda o'rin egallagani uchun) ustunlik qiladi. Huddi shuningdek, shaklning



markaziy qismi, hatto qolgan ikkita o'zaro teng chekka qismlardan o'lchami bilan kichik bo'lgan taqdirda ham ustunlik qiladi. Shakl uchta teng bo'lmagan qismga bo'laklansa, o'lchami jihatidan kattaroq bo'lgan qismi ustunlik qiladi.



5-rasm: Modelni bir xil o'xshashlik qiymati

Bir taraflama faol yo'nalgan hamda kenglikka kirib boruvchi shaklni jo'shqin deb atash to'g'riroq. Shakl jo'shqinligi, eng avvalo, elementlar mutanosibligi hamda ularni qismlarga bo'laklash bilan bog'liqdir. O'lcham qiymatlari nisbatining tengligi (o'xshashligi, ayniyati) yoki nyuansi (*bilinar-bilinmas darajada farqi*) shaklning nisbiy turg'unligi (tinch holati) bilan tavsiflanadi. Nisbatdagi keskinlik ustun bo'lgan o'lcham tomonga yo'nalgan «ko'z harakati» sifatida jo'shqinlikni paydo qiladi. Shunday qilib, oddiy shakl (masalan, to'rtburchak yoki trapetsiya) ichidagi chiziqlar (*chizgilar*) xarakteri va yo'nalishidan kelib chiqib, shaklning turli tomonga intilishi hosil bo'ladi, turg'unligi saqlanib qoladi yoki jo'shqinligi ortadi. Shaklning «ko'z harakati» (jo'shqinligi, dinamikasi) yaratilishi kompozitsiya yaqqol chiqishiga ko'maklashadi.

Libos, poyabzal, sumka yoki umuman kostyumning kompozitsion jihatdan tashkillangan shakli, so'zsiz, o'zining bosh qismiga, ya'ni kompozitsion markazga egadir. Bosh qism – barcha elementlar o'rtasidagi asosiy, muhim aloqa (*bog'lanma*)lar jamlangan joydir, yaxlit bir kompozitsiyadagi dominant hisoblanadi. Har qaysi element, shaklning bir bo'lagi ham kompozitsion markaz bo'la oladi. Kompozitsion markazni turlicha: soniga (miqdoriga), markaz joylashuviga, sifatiga (masalan, otdelka) qarab ajratish mumkin. Kompozitsiyaning murakkab ko'rinishlarida bir-biriga o'zaro bog'langan bir nechta kompozitsion markazlar borligi ehtimoldan holi emas.



Kostyumdagi kompozitsion markaz poyabzal, sumka bo'lishi mumkin. Bunda kompozitsiyaning ma'lum bir qismlari (erkaklar kostyumida – shim pochasi bilan tufli, ayollar kostyumida esa – libosning bel va elka sohasi bilan sapog) o'rtasidagi nisbat tariqasida butunlik echimi nechog'li muhim ekanini qayd etish joiz. Erkaklar modasida shimlar mustahkam o'rnini topgach, ularning poyabzal bilan aniq-tiniq kompozitsion bog'liqligi o'rnatildi. Ko'pgina hollarda uzaytirilgan shimning pochasi poyabzalga tushib qoladi; kenggina shim (bor uzunligi bo'ylab yoki pastki qismi)ning pochasi esa poyabzal ustki qismini butunlay yopadi. Lekin, podoshva, poshna talabga ko'ra ochiq turishi zarur. Shu tufayli ham shim pochasi bilan poyabzaldagi bo'ylama (profil) izning bog'liqlik echimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi bog'liqlik erkaklar kostyumining yaxlitligi hamda qomatning chizib ko'rsatadi. Modaga kirib, urf bo'layotgan to'plam (*komplekt*)lar – shim bilan jaket, shim bilan sviter, shim bilan bluzka va shu kabilar – kostyum kompozitsiyasidagi mazkur qismi echimi qanchalik muhimligini aniqlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.Q.Qulijanova, S.S.Musayev —Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi O'quv qo'llanma. Toshkent-2002 yil.
2. Nigmatova F.U. —Yengil sanoat mahsulotlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan sistemasil fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent-2015 yil.
3. Nigmatova F.U., Xojimatov R.S., Shomansurova M.Sh —Tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan sistemasil fanidan tajriba mashg'ulotlarini bajarish uchun uslubiy qo'llanma. Namangan-2016 yil.
4. M.K.Rasulova. Tikuv buyumlari texnologiyasi fanidan uslubiy ko'rsatma. T., TTESI. 2004 y
5. Xasanbayeva G.K. “Kostyum dizayni”. Study guide. – T.: Iqtisodiyot – Moliya, 2013.
6. “Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash va modellash” M.Z.Murtazoyev, J.Hamidov, G.M.Axmedova, M.E.Eshonqulova. Textbook. T. 2012.